
TOSHLOQ TUMANIDA RESPUBLIKA ISHCHI GURUHI O'RGANISH OLIB BORMOQDA

Ishchi guruh tomonidan tumandagi “og’ir hudud” deya belgilangan mahallalardagi muammolarni aniqlash va bartaraf etishga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

Bugun ishchi guruh a’zolari tumandagi “Suvboshi”, “Piyozchilik”, “Shodlik” hamda “Toshloq” mahalla fuqarolar yig’inlarida bo’lishib, mahalla infratuzilmasini va “mahalla beshligi”ning faoliyatini o’rganishdi. O’rganishlar davomida MFY raislari, hokim yordamchilari, yoshlар yetakchilari, xotin-qizlar faollari hamda profilaktika inspektorlari tomonidan hududni rivojlantirish, yoshlarning bo’sh vaqtidan unumli foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va sport musobaqalari o’tkazish, jinoyatchilikni oldini olish, mahalla osudaligini ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishildi.

2024-01-23 16:48:15